Аннотация: В статье анализируется формирование певческих навыков в процессе развития голоса учащихся и его роль в музыкальном образовании. Занятия вокалом рассматриваются как важный фактор не только совершенствования эстетического вкуса, но и обеспечения интеллектуального, духовного, психологического и физиологического развития учащихся. В статье также приводятся научно-теоретические выводы о проблемах, возникающих в процессе вокального образования, путях их преодоления и методике обучения пению.

Ключевые слова: интонация, интеллектуальный, репертуар, мутация, певческие навыки, регистр, тембр, музыкальное образование, постановка голоса, музыкальные способности, методика, творческое развитие, вокальный диапазон.

KIRISH

Hozirgi kunda bilamizki, zamonaviy ta'lim tizimida musiqa fanining o'rni beqiyos bo'lib, u yosh avlodning estetik dunyoqarashini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini boyitish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa inson qalbiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turlaridan biri sifatida o'quvchi shaxsiyatini barkamol inson qilib voyaga yetkazishda alohida ahamiyatga ega. Xususan, qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarning nafaqat musiqiy didini, balki ularning nafas olish, nutq, intonatsiya, tinglash va eshitish qobiliyatini ham shakllantiradi. O'quvchilarning ovoz diapazoni, tembr va ijro madaniyatini rivojlantirish jarayoni ularning yosh xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlariga mos tarzda olib borilishi lozim.

Sh.M. Mirziyoyev 2-fevral 2022-yili "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror'ida 2022–2023-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarni musiqa bilim hamda ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra amaliy to'garaklar tashkil etishga oid vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, pedagogik jarayonda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish nafaqat musiqiy bilim berish, balki shaxsning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi jarayon sifatida qaraladi. Qo'shiq

1 <https://lex.uz/docs/-5849580>



kuylash jarayoni o'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarning kompleks shakllanishini ta'minlaydi. Bu jarayon intonatsiya aniqligini rivojlantiradi, ritmik sezgirlikni mustahkamlaydi, nafasni to'g'ri ishlatish malakasini shakllantiradi, ansambl uyg'unligi va xor madaniyatini rivojlantiradi, estetik zavq uyg'otib, musiqiy didni shakllantiradi. Bundan tashqari, qo'shiq kuylash orqali bola o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda eta oladi, jamiyat bilan muloqot qilish, o'zini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa shaxsning psixologik barkamolligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq amaliyotda bu borada bir qator muammolar ham uchraydi. Jumladan, o'quvchilarning ovozi noto'g'ri ishlatishi, baland registrlarda majburlab kuylashi, nafas olish texnikasining to'g'ri shakllanmaganligi, ovoz tarbiyasida tizimlilik va metodik ketma-ketlikning yo'qligi, ayrim pedagoglarning bolalar ovozi xususiyatlarini hisobga olmasligi hamda o'quvchilarda musiqiy eshituvning sustligi va intonatsiya noaniqligi bu boradagi eng asosiy muammolar hisoblanadi. Ularni bartaraf etish uchun o'quvchilarning yosh va fiziologik imkoniyatlariga mos qo'shiqlarni tanlash, to'g'ri nafas olish va artikulyatsiya mashqlarini muntazam bajarish, ovoz mashqlarini bosqichma-bosqichlik asosida tashkil etish, xor repertuarini milliy va jahon musiqiy merosi asosida boyitish hamda har bir mashg'ulotda pedagog tomonidan intonatsion aniqlik, ritmik uyg'unlik va ovoz salomatligiga alohida e'tibor berish lozim.

Ilmiy-nazariy hamda amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, qo'shiq kuylash mashg'ulotlarini tizimli yo'lga qo'yish o'quvchilar ovoz diapazonini kengaytiradi, musiqiy eshituvini sezilarli darajada rivojlantiradi, jamoaviy ijroda hamkorlik va intizomni shakllantiradi, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi, estetik didni yuksaltiradi va shaxsning ijodiy rivojiga xizmat qiladi. O'quvchilar ovozi rivojlantirishda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish jarayoni musiqiy ta'limning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Bu jarayon faqatgina musiqiy bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va psixologik rivojlanishini ta'minlaydi. Ovoz tarbiyasi va qo'shiq kuylash malakalarining puxta shakllanishi orqali o'quvchilar musiqani chuqur his eta olish, uni to'g'ri ijro etish, jamoa oldida o'zini erkin namoyon qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, pedagogik amaliyotda ovoz rivojlantirish va qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish, bu jarayonda metodik yondashuvlar va ilmiy asoslangan mashg'ulotlar tizimini qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lum bir qo'shiqni kuylash jarayonining o'z talablarini to'g'ri va puxta bajargandan so'ng asarning musiqiy yo'nalishi orqali o'quvchilarda kuylash malakasining shakllanib borishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun esa quyidagi bosqichlar orqali maqsadga erishish rejalashtiriladi:

1. Oddiy va elementlar kuylashni o'rganishga erishish.
2. Oddiylikdan murakkablikka ko'chadigan mashqlar ustida ishlash.
3. Hosil bo'lgan kuylash mahoratidan o'rinli foydalanish.

Bu bosqichlar natijasi shunga chorlaydiki, o'quvchilarning o'zaro kuylash malakalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada ko'plab olimlar tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Graham F. Welch (Buyuk Britaniya) – bolalar kuylashini va vokal rivojlanishni tizimli o'rganish, kuylash mashqlarining bolalarning musiqiy, ijtimoiy va emotsional rivojiga foydasi haqida tadqiqotlar olib borgan. Welch bolalarning kuylash qobiliyati yoshi va ta'lim imkoniyatlariga bog'liq ekanini, maktabdagi muntazam qo'shiq mashqlari uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Yana bir olim Edwin E. Gordon (AQSh) bo'lib, u – Music Learning Theory (audiatsiya – “audition”) orqali bolalarda tinglab o'rganish va ichki musiqiy fikrlashni shakllantirishda qo'shiq va eshitishga asoslangan mashqlarni markaziy deb hisoblagan.

Gordonning ishlarida qo'shiq va tinglash mashqlari bolalarning musiqiy tushunishini (audition) rivojlantirishda asosiy vosita sifatida tavsiya etiladi. Vengriyalik olim Zoltán Kodaly esa – ta'lim yondashuvi (Kodaly Method) qo'shiq kuylashni musiqiy layoqatning asosiy vositasi deb biladi: qo'shiq, solfejio va qo'l belgilaridan foydalanib bolalarda ohangni, intonatsiyani va musiqiy eshitishni shakllantirishga katta e'tibor qaratadi. Kodaly metodidan butun dunyoda bolalar vokal mashqlarida keng foydalaniladi. Bundan tashqari Emile Jacques-Dalcroze (Shveysariya) – Dalcroze yondashuvi (eurhythmic) harakat va ritm orqali musiqiy tushunishni va intonatsiyani rivojlantirishni ta'kidlaydi; tadqiqotlar shu yondashuv orqali qo'shiq intonatsiyasi va ritmni aniqlashni yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Yana bir AQSh olimi Carl E. Seashore esa musiqiy qobiliyat tadqiqotlari bilan mashhur (AQSh, tarixiy) bo'lib, u musiqiy qobiliyatlarni o'lchash sohasida klassik tadqiqotlarni amalga oshirgan; uning ishlari eshitish (pitch, timbre, intonatsiya) komponentlarini baholash orqali qo'shiq mashqlarining nima uchun muhimligini tushuntirishga yordam beradi (tarixiy nazariy asos sifatida). Richard Miller esa vokal pedagogikasi tadqiqotlari bilan tanilgan bo'lib, u vokal texnika va fiziopedagogik yondashuvlar, ayniqsa bolalar ovozi sog'lom rivojlantirish uchun mashqlar va treninglarning mexanizmi haqida asarlar yozgan. U vokal mashqlarni anatomik va akustik jihatdan sharhlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Barchamizga sir emas, hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablari oldida ham har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa turibdi. Bu vazifani bajarishda san'atning barcha turlari qatori musiqa ta'limi va tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Musiqa darsida o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan har bir faoliyat turi musiqaning mazmunini ongli ravishda o'zgartirishga yordam beradi. Maktab musiqa madaniyati darslarida bolalarga xos musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa jo'rligida turli harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblari chalish, turli tadbirlarda qatnashish kabi mashg'ulotlar musiqaviy faoliyat mazmunini tahlil etadi. Musiqani faol ravishda tinglash o'quvchilarda o'ziga xos badiiy nafosatni hamda ijrochilik malakalarini shakllantiradi. Musiqa tinglaganidan so'ng asar haqida o'quvchilarning suhbatlari, o'zaro fikr almashuvlari juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ularda musiqadagi obrazlarni, uning g'oyaviy-badiiy mazmunini, musiqaning o'ziga xos ifodaviylik xususiyatlarini anglash, ya'ni musiqani ongli idrok etish malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun o'qituvchi tinglash va kuylash uchun asarlarni tanlashda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutmog'i lozim. Asarlar o'quvchi bolalarga tushunarli, mavzu jihatdan rang-barang va bolalar dunyosiga yaqin bo'lishi kerak.

O'qitish – o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'qib ko'nikma va malaka egallashi, tarbiyalanib rivojlanishi nazarda tutiladi. Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirib, ularda ona vatanga muhabbat, go'zallikka intilish, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. O'qituvchi o'quvchilar ovozi tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanishi lozim. Ashula aytishning o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq qiyinchiliklari ham yo'q emas. Xonandaning ovozi o'ziga xos "musiqa asbobi" hisoblanadi. Biroq, kuylashdan oldin tinglay bilish ham zarur. Tinglaganda ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlar ketma-ketligini aniq yetkaza oladigan darajada eshita bilish talab etiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, ashula aytish uchun o'quvchida avvalo tabiiy musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira va aniq ifodalash qobiliyati bo'lishi zarur. O'quv yilining boshida bolalardagi ana shu fazilatlar inobatga olinib, alohida reja tuziladi. Yakka qo'shiq o'rgatishda faqat yaxshi va a'lo darajada musiqiy qobiliyat hamda sog'lom ovozga ega bo'lgan o'quvchilar tanlab olinadi. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, o'rtacha musiqiy qobiliyatga ega bo'lganlar ham uslubiy jihatdan to'g'ri va muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar davomida musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Eshitish va xotira xususiyatlari rivojlanadi hamda aniq ifoda etish malakalari shakllantiriladi. Oldindan tayyorlangan kuy namunalari va musiqiy parchalar vositasida har bir o'quvchining musiqiy va ashula aytish qobiliyatini sinab ko'rish mumkin (la-la-la, na-na-na yoki pam-pam-pam). Masalan, o'quvchining usulni ilg'ab olish darajasi murakkablik jihatidan turlicha bo'lgan usullar bilan sinab ko'riladi.

O'qituvchi tomonidan ovozda yoki cholg'uda chalingan ohangning usulini kaftlarini bir-biriga urish yoki qalamni stolga urish bilan bajarishi mumkin. Agar stolga urilgan usul to'g'ri takrorlansa, so'ngra murakkabroq usul orqali sinov o'tkaziladi. Bundan tashqari, o'quvchining kuylashida nafas tayanchi ham juda muhim hisoblanadi. Nafas tayanchi – nafas olish mushaklarining "o'yini", ularning qisqarganida, ya'ni harakatlanganda o'zaro aniq muvofiqlashgan hamkorligidir.

O'quvchilarning musiqiy xotirasi kuylardan parchalarni ketma-ket takrorlash vositasida tekshiriladi. Kuylashning qiyin yoki oson bo'lishi o'quvchining yoshiga bog'liq. O'rta va katta yoshdagi bolalar uchun nisbatan murakkab kuylar tanlanadi. Shundan so'ng, o'quvchining ovoz imkoniyatlarini tekshirishga o'tiladi. Kuylash malakalarini shakllantirishda mashqlar majmuasini yaratib, ularning maqsadga muvofiq bajarilishi muhimdir. Qayta kuylash usulining ikki sharti mavjud:

- o'quvchi kuylashda o'z oldiga aniq bir maqsad qo'yishi kerak;
- o'quvchi nimaga erishganini, har bir maqsad va vazifa asosida qanday natija berganini, qanday xato va kamchiliklarga yo'l qo'rganini bilishi hamda kelajakda bu xatolarni bartaraf etishga intilishi zarur.

Yuqoridagi shartlarning bajarilishi xor bo'lib kuylash faoliyati samaradorligini oshiradi. Ovoz diapazoni ayrim qo'shiqlar va mashqlarni turlicha, ya'ni yuqori va quyi pardalarda kuylatish orqali tekshiriladi, ovoz diapazonining yuqori va quyi tovush nuqtalari aniqlanadi. Avvalo, o'quvchining ashula ayta olish qobiliyati aniqlanadi. Agar diapazonda quyi va yuqori tovushlar bo'lib, o'rta tovushga ega bo'lsa, bunday ovoz alt (past ovoz) deb belgilanadi va bu maqsadga muvofiqdir. Diapazoni kuchli ovozning qaysi partiyaga mansubligi quyidagicha aniqlanadi: agar diapazonda quyi tovushlar kuchli bo'lsa – alt, yuqori tovushlar kuchli bo'lsa – diskant (yuqori ovoz) deb belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yakkaxon qo'shiqchi ijrosining sifati, avvalo, uning ovozi va ijrochilik mahoratiga bog'liq. O'smirlar (11-18 yosh) organizmida butun hayotiy faoliyatiga ta'sir etuvchi yirik anatomik-fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi; bu jarayonlar ovoz apparatida ham yuzaga chiqadi. Ovoz apparatining shakllanishi bola organizmidagi ayrim



a'zolarning o'sishi bilan chambarchas bog'liq, ayniqsa bunday hol o'g'il bolalarda yaqqol seziladi: ovoz bog'lamlari uzuniga kengayadi, eni odatda o'zgarmaydi, bo'g'iz tez o'sadi, ba'zan hiqildoq osti rivojlanmay qolishi kuzatiladi; bu esa nafas olish hamda bo'g'iz faoliyatining buzilishi bilan bog'liq. Shunga o'xshash hodisalar qiz bolalarda ham uchrashi mumkin, biroq o'g'il bolalardagidek aniq ifodalanmaydi. Mutatsiya davrining xarakterli tomonlaridan bo'lgan bo'g'izning tez o'sishi ovoz rivojlanishida nisbatan murakkab va xavfli palladir. Ovoz apparati 15 yoshdan 18 yoshgacha sekin-asta shakllanib boradi, 19 yoshda rivojlanish asosan to'xtaydi. 11-18 yosh oralig'i shartli ravishda uch bosqichga ajratiladi:

- 11-13 yosh – balog'atga yetish arafasi (ovoz apparatida yirik o'zgarishlar bo'lmaydi);
- 13-15 yosh – mutatsiya davri (balog'atning boshlanishi);
- 15-18 yosh – balog'atga yetish va bo'g'iz hamda butun ovoz apparati shakllangan bosqich.

Har bir bosqich o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, xorda ishlovchi rahbar bularni yaxshi bilishi lozim. Bolalar organizmi nihoyatda xilma-xil sur'atda rivojlanadi; mutatsiya davrida alomatlarning yuzaga chiqish muddatlari ham turlichadir. Shu bois xor jamoasida har bir bolaga individual yondashuv zarur. Mutatsiya yaqinlashganini aniq belgilash qiyin: odatda bola ovozi dastlab tiniqlashib, kuchga to'ladi, biroq tez orada ilgari oson ijro etilgan diapazonning yuqori tovushlari zo'riqish bilan aytila boshlaydi, ohang-tegishlar tez-tez buziladi, ovoz birxilligi, yoqimliligi va jarangdorligi pasayadi, diapazonda sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Qizlarda u odatda bir-ikki pardaga pasayadi, o'g'il bolalarda esa bir oktava va undan ko'proq darajada pasayishi mumkin. Bo'g'izning yallig'lanishi, shilliq ajralmalarning ko'payishi, nafas funktsiyasining buzilishi ba'zan ovozning vaqtincha yo'qolishiga olib keladi; bu hol o'g'il bolalarda ko'proq, biroq qizlarda ham, kam bo'lsa-da, uchrab turadi. Bu davrda o'g'il bolalarda hiqildoq tez o'sishi natijasida ovoz kichik oktava diapazoniga ko'chadi. Mutatsiya davri o'g'il bolalarda 6-9 oy – 2-3 yilgacha davom etishi mumkin; qizlarda odatda uzoq cho'zilmaydi, ba'zan 15-16 yoshda takrorlanishi yoki aynan shu yoshda birinchi marta boshlanishi ehtimoli bor. Mutatsiya arafasida muntazam, ammo ehtiyot choralariga amal qilingan holda ashula aytish ovozning silliq va tekis tarbiyalanishiga, hatto mutatsiya chog'ida ham ijroni davom ettirishga yordam beradi; agar mutatsiya o'tkir tarzda kechsa, mashg'ulotni bir muddat to'xtatib turish kerak bo'ladi. Bu davrda shifokor-foniatorga murojaat qilish nihoyatda muhim. Vokal mashg'ulotlarining vaqtini qisqartirish, baland tovushda kuylashni biroz kamaytirish tavsiya etiladi; toliqishning ilk alomatlari ko'ringanda mashg'ulotni darhol to'xtatish lozim. Bu qoidalarni musiqa o'qituvchisi bilishi va bolalarga aniq tushuntirib borishi zarur. Mutatsiya chog'ida ijroni butkul to'xtatib qo'yish tovush hosil qiluvchi organlarda shakllangan koordinatsiyalarning yo'qolishiga olib keladi; aksincha, chegaralangan vaqt bilan muntazam mashq qilish bu koordinatsiyalarni saqlaydi va mustahkamlaydi.² O'g'il bolalar mutatsiya davrida ham izchil shug'ullansa, jarayon silliq va deyarli sezilmay o'tishi mumkin:

- ular ovozini yetarlicha boshqarib, o'zlariga qulay tovushlarni tanlab kuylay oladi;
- bu paytda diskant va alt ovozigacha yozilgan asarlarni ijro ettirish maqsadga muvofiq.

Muntazam mashg'ulotlar jarayonida ovoz bog'lamlarining o'sishi notekis kechgani uchun diapazonni kengaytirishda juda ehtiyot bo'lish talab etiladi.

O'smir yoshdagi soprano va diskantlar uchun odatiy diapazon birinchi oktavadagi Do–Re notalaridan ikkinchi oktavadagi Fa–Solgacha bo'lishi mumkin; agar past tovushlar ko'p uchrasa, asarning tessiturasida past, yuqori tovushlar ustun bo'lsa, tessitura baland hisoblanadi. Juda past yoki juda baland tessitradagi ijro sun'iy aytishga olib kelib, bola ovozigacha salbiy ta'sir qiladi; shu sababli asar tanlashda o'qituvchi tessitura qulayligini doimo nazarda tutishi zarur. O'smirlarda – ham o'g'il, ham qiz bolalarda – tovush chiqarish mexanizmlarida farq yaqqol ko'rinadi: qizlarda diapazonning asosiy qismini markaziy registr tashkil etadi va u tabiatan aralash ovozga moslashgan (sof ko'krak va yuqori sado faqat chetki notalarda eshitiladi); o'g'il bolalarda esa aralash sado ko'proq sun'iy yo'l bilan hosil qilinadi, shu bois ularning diapazoni cheklangan bo'lishi mumkin, chunki ijro vaqtida ko'proq ko'krak registrdan foydalanadilar. Asosiy va aralash registrlarda tovush chiqarishni puxta o'rganganlaridagina diapazon kengayadi. Qizlar ovozi tabiatan markaziy (o'rta) registrga ega bo'lib, bu hol diapazonning barcha notalarini tekis chiqarishga imkon beradi; o'g'il bolalarda bunday registrda kuylash murakkabroq, ammo maxsus ovoz mashqlari yordamida zarur ko'nikmalar shakllantiriladi. Bolalar ovozini tarbiyalashda aralash ovoz turini takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega: bu ovozning mayin chiqishini ta'minlaydi, registrlar o'rtasida o'tishni yengillashtiradi va diapazon bo'ylab tekis ijroga erishishga yordam beradi. Yuqori ovoqli qizlarda pastdan o'rta o'tish notalari 1-oktavaning Mi–Fa–Fa diyez pardalari, o'rtadan bosh registrga o'tish esa 2-oktavaning Fa–Fa diyez pardalari hisoblanadi; past ovozlarda o'tish notalari 1-oktava pardalarida, o'rtadan bosh registrga o'tish esa 2-oktavaning Do–Re pardalarida kuzatiladi. O'g'il bolalarda ikki

2 T.Akbarov "Bolalar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo'yicha xususiyatlari." "Oriental Art and Culture"Scientific-Methodical Journal-Volume 4 Issure 3/ June 2023.

asosiy registr mavjudligi bois bosh sadoga olib boruvchi tovushlar o'tish notalari sanaladi (masalan, diskantlarda 2-oktavaning Mi–Fa–Fa diyev, atlarda esa 2-oktavaning Do–Re pardalari). O'smirlar bilan ishlaganda ko'krak registridan o'rinni foydalanish juda muhim: undan ortiqcha foydalanish ovozni baqiroq qilib qo'yishi mumkin. Ovoz kuchi diapazon bilan bevosita bog'liq; diapazonning turli qismlarida muayyan darajada ovoz kuchi talab qilinadi, aks holda ovozga zarar yetishi ehtimoli bor. Bolalar ovozi tiklanish davrida baland bo'lishi shart emas: ovozning go'zalligi uning jarangdorligi, yengilligi va soddaligidadir. Tabiiy ovoz kuchi orqali jarangdorlik va sadolarning jozibadorligiga erishish o'qituvchiga bolalar ovozining sog'lom rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi; eng baland sadoga odatda o'rtacha kuch bilan erishiladi. Ovoz jarangdorligi ko'p jihatdan tembrga (ovoz tusiga va chiroylligiga) bog'liq; o'smirlik davrida to'g'ri va muntazam kuylash natijasida tembr asta-sekin aynan shu ovozga xos sifatlar bilan boyiydi. Tembrni to'g'ri tarbiyalash – bolalarni diapazonning turli qismlarida unli tovushlarni to'g'ri va jarangdor ijro etishga o'rgatish demakdir.

Vokal texnikasi va ijrochilik bilimlarini rivojlantirishda eshitish taassurotining ahamiyati haqida aytib o'tdik. Bu o'rinda xonanda tarbiyasida o'rnak bo'la oladigan yuqori malakali ijrochilarni tinglash zarurdir. Avval eshitish qobiliyati eng sezilarli xatolarni ajrata olsa, bora-bora malaka oshgan sari mayda xatolarni ham anglash imkoniga ega bo'ladi.³ O'quvchilar ovozini rivojlantirishda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirishni tahlil qiladigan bo'lsak, bolalarning musiqiy rivojlanishida eshitish qobiliyati markaziy o'rin tutishi barchamizga sir emas. Chunki kuylash jarayoni nafaqat tovush chiqarish, balki uni boshqarish, ohang va ritmni to'g'ri idrok etish, o'z ovozini boshqa kuylovchilar bilan uyg'unlashtirish kabi murakkab psixofiziologik jarayonlarni talab qiladi. Eshitish qobiliyati bolaning musiqiy tafakkuri, estetik didi va ijodiy qobiliyatining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Kuylash jarayonida eshitishning asosiy vazifalari:

Tovush balandligini idrok etish – bola kuylashda tovushlarning past-balandligini aniqlay olishi, ularni eshitib taqqoslashi va ovozini shunga moslashtira olishi kerak. Bu jarayonning asosi – musiqiy eshitish qobiliyatidir.

- Ohangni saqlash – kuylashda eng muhim jihatlardan biri ohangni buzmaslikdir. Bola o'z eshitish qobiliyatidan foydalanib, kuylayotgan qo'shiqdagi notalarni to'g'ri talaffuz qiladi va ohangni izchil davom ettiradi.
- Ritmni sezish – eshitish orqali bola musiqadagi ritmik birliklarni idrok etadi va uni kuylash jarayonida aniq ifodalaydi.
- Ansambli uyg'unligini ta'minlash – xorda kuylayotgan bolalar bir-birlarini eshitib, o'z ovozlari jamoa bilan uyg'unlashtiradilar.

Bu musiqiy eshitish sezgisi rivojlangan bolalargina to'g'ri uddalashlari mumkin bo'lgan vazifadir. Eshitish qobiliyati va kuylash madaniyati o'rtasidagi bog'liqlik: Bolada eshitish qobiliyati qay darajada rivojlangan bo'lsa, uning kuylash madaniyati ham shunga yarasha shakllanadi. Masalan, musiqiy eshitishi kuchli bo'lgan bola ohangni eshitib tezda yod oladi, qo'shiqning intonatsiyasini aniq ijro qiladi, dissonans yoki ohangdagi xatoni tezda sezadi, o'z ovozini boshqarish va nazorat qilishni o'rganadi. Eshitish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar esa kuylashda ko'pincha baland-pastni noto'g'ri ijro etadilar, ritmdan chiqib ketadilar, ovozlarini boshqalarnikiga uyg'unlashtirishda qiynaladilar. Shu sababli o'qituvchi yoki dirijorning vazifasi – bolalarda musiqiy eshitishni muntazam mashqlar orqali rivojlantirishdir. Bolalarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish usullari esa musiqiy o'yinlar – tovushlarni farqlash, ritmik urishlar, qo'shiqdagi notalarni topish kabi o'yinlar eshitish qobiliyatini mashq qildiradi. Tovushlarni taqqoslash mashqlari – ikki yoki undan ortiq tovushni tinglab, ularning qaysi biri balandroq yoki pastroq ekanini aniqlash. Unisonda kuylash – bolalar bir ohangni birgalikda kuylash orqali o'z eshitishlarini mustahkamlab boradilar. Musiqa tinglash – klassik va xalq qo'shiqlarini diqqat bilan tinglash, ohanglarni eslab qolish eshitish sezgisini rivojlantiradi. Xoriy mashqlar – ikki ovozli yoki ko'p ovozli qismlarni kuylash orqali bola o'z ovozini nazorat qilishni, boshqalar bilan uyg'unlashishni o'rganadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eshitish qobiliyatining shaxsiy va ijodiy rivojlanishga ta'siriga kelsak, musiqiy eshitish faqat kuylash uchun emas, balki bolaning umumiy intellektual va estetik rivojlanishi uchun ham muhimdir. Bolalarda kuylashda eshitish qobiliyatining ahamiyati nihoyatda katta. Chunki aynan eshitish orqali bola musiqani his qiladi, ohangni anglaydi, ovozini to'g'ri boshqaradi va kuylash madaniyatini shakllantiradi. Musiqiy eshitish qobiliyati rivojlangan bola nafaqat yaxshi kuylaydi, balki musiqadan estetik zavq oladi, uni to'g'ri idrok etadi va ijodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi. Shu bois, musiqiy tarbiya jarayonida bolalarda eshitish qobiliyatini shakllantirish va mustahkamlash eng asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak.

3 B.Shaxnazarova. Xonandalik uslubiyoti asosolari. o'quv qo'llanmasi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika axborot va metodika markazi.31-b.Toshkent 2017.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev. 2022-yil 2-fevral. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror. PQ-112-son, 1-band. <https://lex.uz/docs/-5849580>
2. B. Qo'ldashboyev. Vokal ijrochiligi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston davlat konservatoriyasi. Toshkent – 2024. 11-b.
3. B. Mustafoyev. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Buxoro davlat universiteti. Buxoro – 2021. 70-b.
4. B. Shaxnazarova. Xonandalik uslubiyoti asoslari. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika axborot va metodika markazi. Toshkent – 2017. 31-b.
5. E'zozxon Qobilova. "Boshlang'ich sinflarda kuylash malakalarini shakllantirish uslubi" maqolasi. Oriental Art and Culture Scientific-Methodical Journal. Volume 2, Issue 4. December 2021. Qo'qon davlat pedagogika instituti.
6. G. M. Sharipova, G. T. Tojjeva. Musiqa metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". Toshkent – 2012. 5-b.
7. T. Akbarov. "Bolalar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo'yicha xususiyatlari". Oriental Art and Culture Scientific-Methodical Journal. Volume 4, Issue 3. June 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.